

TANLANGAN ASARLAR

Komil Xorazmiy

(1825—1897)

O'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lgan Komil Xorazmiy 1825 yilda Xiva shahrida tug'ildi. Uning otasi Abdulla Oxund madrasada mudarris bo'lgan. Komil Xorazmiyning asli nomi Pahlavonniyoz bo'lib, Komil uning adabiy taxallusidir. Komil maktab va madrasalarda o'qib, zamonasiga ko'ra yaxshi tahsil oladi. Mutolaa bilan shug'ullanadi va davrining yirik shoirlari suhbatlariga qatnashadi, ilm tajribasini orttiradi. Yoshligidanoq o'zbek klassik adabiyoti va fors-tojik adabiyoti yozuvchilari ijodini qunt bilan o'rganadi.

Komil ancha yosh chog'idayoq shoir sifatida yaxshi nom qozonadi. Komil oddiy mirzo sifatida xon saroyiga ishga qabul qilinadi. Komil tanbur, g'ijjak, santurda nihoyat yaxshi mashq qilar edi. Shu sababdan xon huzurida bo'ladigan san'at, muzika kechalarida qatnashadi. Komil bu haqda o'zining hajviy g'azallarida ma'lumot beradi. Birmuncha vaqt o'tgandan so'ng, Komil mirzaboshi bo'lib tayinlanadi.

Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlarida berilgan ma'lumotlarga qaraganda, Komil Xorazmiy xon saroyida turli ma'muriy ishlarga ham qatnashgan, jumladan, 1861 yilda Buxoroda Amir Muzaffar zamonasida Xorazmdan Buxoroga elchi bo'lib borgan.

1873 yilda Xorazm xonligi Rossiyaga qo'shib olingandan so'ng, Muhammad Murod devonbegi va boshqa birmuncha saroy amaldorlari chet joylarga surgun qilinadi. Shundan so'ng, Komil devonbegi bo'lib tayinlanadi.

Zamonasining ilg'or kishilari bo'lgan olim, shoir, san'at arboblari mirzo, oddiy xat ko'chiruvchi sifatida saroy ishlariga qatnashishga, ba'zi bir lavozimlarni bajarishga majbur edilar.

Muhammad Murod devonbegi surgunga yuborilgandan so'ng, xon boshqa kishi topmaganidan, Komilni devonbegi qilib tayinlashga majbur bo'ladi, lekin birmuncha vaqtdan so'ng Muhammad Murod devonbegini surgundan so'ratib oldirib, uni o'z o'rniga tayinlaydi, Komil mirzaboshi bo'lib qoladi. Nodon, johil devonbegi har xil yo'llar bilan Komilni siqa boshlaydi. Azobda qolgan Komil bir fursat topib, quyidagi she'rni yozib xonning qo'liga beradi:

*Manga ey shahim, ko'p itob aylama,
G'am o'tida bag'rim kabob aylama.*

*Zag'ang'a berib bulbul o'rnida joy,
Humo hamnishinin uqob aylama...*

Xonga bu she'r ma'qul kelmaydi. Uni devonbegi qo'liga beradi. Devonbegi boshqa bir shoirga Komilni masxara qiluvchi javob she'rini yozdiradi.

Xon bir kuni Komilga forschadan bir asarni o'zbekchaga tarjima qilishni topshiradi. Komil juda ko'p mehnat sarf qilib, uni tamom qiladi, ammo bu xizmat shoir Rojiiy nomiga o'tadi. Rojiiy bu «xizmati» uchun in'om va madrasadan hujra oladi. Ancha vaqt Komil bundan

bexabar bo‘ladi, bir kun bir do‘sti unga bu voqeani aytadi. Tuhmat ostida qolgan Komil maxsus bir masnaviysida xon va saroy tomonidan xo‘rlanganini chuqur afsus bilan bayon qiladi. Komil qancha harakat qilsa-da, uning dodiga yetuvchi kishi bo‘lmaydi Saroy aristokratiyasi tomonidan bunday munosabat faqat Komilga nisbatangina bo‘lgan emas. Bu jihatdan saroyda Ogahiy va uning ijodiga bo‘lgan munosabatdan guvohlik beruvchi Komilning yana bir masnaviysi juda ham xarakterlidir. Bu masnaviyda Komil zamonasining ulug‘ olimi, shoiri Ogahiy ijodiga baho berish saroy chinovniklari qo‘lida bo‘lib, ular uning bebaho, gavhardan qimmat g‘azallariga jugan (qo‘qon jo‘xorisi) bilan haq to‘lar edilar, deb hasrat qiladi.

Bu faktlar saroyga ishga kirishga majbur bo‘lgan shoir, olimlarning fojiali ahvolini juda yaqqol ko‘rsatadi. Xon va boshqa aristokratlar ularga yollangan kishi sifatida qaraydilar. Ularning nohaq xohishiga ko‘nmagan, unga qarshi chiqmoqchi bo‘lganlar masxaralangan, xo‘rlangan, kaltaklangan. Zamonasining ilg‘or kishilaridan biri bo‘lgan Komil ana shunday azoblar natijasida salomatligini yo‘qotib, qarigan vaqtida ko‘zi ojizlanib, chuqur ruhiy azob ostida 1897 yilda vafot etadi.

* * *

Muhammad Rahimxon (1864—1910) saroy atrofiga adabiyot va san‘at arboblari to‘plab, adabiyot, san‘at kechalari o‘tkazishga ancha vaqt sarf qiladi. O‘zi ham anchagina she‘riy qobiliyatga ega bo‘lgan Muhammad Rahim Feruz taxallusida g‘azallar ham yozar edi. Uning zamonida Xorazmda toshbosma tashkil etiladi Navoiyning ayrim asarlari va Xorazm shoirlarining ko‘p devonlari ana shu toshbosmada nashr qilinadi. Fors-tojik adabiyotidan muhim tarixiy, adabiy asarlar o‘zbek tiliga tarjima qilinadi. Feruz davridagi adabiy harakatning jonlanishida Ogahiy va Komilning ta’siri va xizmati katta.

Komil ijodining temasi xilma-xil. Biz unda murakkab hayot, dunyoni anglay olmasdan, undagi haqsizliklardan dodlaguvchi, hasrat qilguvchi otashin yurak sadosini, jamiyat, ochko‘zlik, baxillik, hasadgo‘ylik, laganbardorlik kabi xususiyatlar qoralanib, kishilarni himmatli bo‘lish, insof va vijdonga chaqirish tuyg‘ularini ko‘ramiz.

Qisqa qilib aytganda, yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan yovuzlik o‘rtasidagi kurash shoir ijodining asosiy mag‘zini tashkil etadi. Bu hodisa shu davr yozuvchilarini bizga ulug‘, ilg‘or qilib ko‘rsatish bilan birga, ularning tarixiy chegaralanganligidan ham darak beradi.

Inson qalbining o‘lmas, abadiy samarasi muhabbat, intim lirika Komil ijodida ham salmoqli o‘rin olgan. Bu sohada u chinakam inson tuyg‘ularini o‘ziga xos yo‘sinda juda yoqimli qilib bera oldi.

Komil xon bilan bir necha bor Rossiya va Toshkent safarida bo‘ldi. Shunda rus xalqi va boshqa xalqlar hayotiga juda diqqat bilan nazar soldi.

O‘z san‘atini sevgan shoir xalq kuylarini saqlab qolish, mukammallashtirish ustida ko‘p o‘yladi va Xorazm klassik kuylarini o‘zi tomonidan yaratilgan chiziqlar — notaga ko‘chirdi. Uning bu ishini o‘g‘li shoir, ham kompozitor Muhammad Rasul — Mirzo davom qildirdi.

Komil merosidan bizga bitta devon yetib kelgan. Bu devon Xorazmda tosh bosmada ikki marta, 1909 yilda Toshkentda ham tosh bosmada nashr etilgan. Komilning devoni o‘zbek adabiyotida davom etib kelgan traditsiya asosida, ya’ni alifbe tartibida tuzilgan bo‘lib, unda

poeziyaning — gʻazal, mustazod, muxammas, murabbaʼ, musaddas, musamman, tarjiʼband, masnaviy shaklidagi hamma janrlarida yozilgan sheʼrlar bor. Shuningdek, bu devonga Komilning fors-tojik tilida yozgan gʻazal, muxammaslari ham kirgan. Bu tosh bosma devonlaridan tashqari Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qoʻlyozmalar fondida Komilning turli davrda, turli kotiblrlr tomonidan koʻchirilgan qoʻlyozma devonlari ham bor. Bu kichkina toʻplamni tuzishda yuqorida aytilgan devonlardagi materiallar asosga olindi.

Rahmat Majidiy

GʻAZALLAR

Buxl eliga demagil, ey zubbai davron, soʻzing,
Hayf etar, qadrini bilmas, siflai nodon, soʻzing.
Garchi, soʻzdek gavhari qimmatbaho yoʻq dahr aro,
Bor alarning qoshida harmuhradin arzon soʻzing.
Ulki qilmaydur maoni bahrigʻa gʻavvosliq,
Koʻrmagay munjuqcha gar boʻlsa duri gʻalton soʻzing.
Past fitratlarga dunyo moli uchun tutma koʻz,
Bir qaro pul bobida mushkul qilur oson soʻzing.
Buxl zangini qira olmas temurdek koʻnglidin,
Gar itiklik ichra boʻlsa oʻylakim soʻhon soʻzing.
Gar soʻzingdin bir nimarsa oʻnmasa bu dunyoda,
Tinglamaslar oxiratda bersa ham, imon soʻzing.
Iltilmos etma olardin bir koʻnakni zinhor,
Sindirur gar bersa ham oʻlgan badangʻa jon, soʻzing.
Donish ahli qoshida har biri bir laʼli xoʻshob,
Lek olargʻa bordurur laʼl oʻlsa ham paykon soʻzing.
Topmasang soʻz lazzatidin ogahu Komil kishi,
Soklagʻil boʻlgʻuncha koʻnglung pardasida qon soʻzing.

* * *

Boʻlmasa garduni sufladoʻst gar dun, ey koʻngul,
Nega dunni shod etar, dononi mahzun, ey koʻngul.
Chun falak nodon navozu, xasmi donodur, ne sud,
Donish iqlimida boʻlsang gar Falotun, ey koʻngul.
Izzat ila neʼmat avjida boʻlur oliy maqom,
Har kim oʻlsa kaj nechukkim ayn ila nun, ey koʻngul,
Zoyl etmak istasang oʻzdin mazallat qoniʼ oʻl,
Olmas ul chirkingni mundin oʻzga sobun, ey koʻngul.
Javhari jon ul matoʻ ermaski sotqun olgʻasen,
Ne osigʻ gar hosil etsang ganji Qorun, ey koʻngul.
Oqil ersang kibru naxvat qilma izzu johinga,
Boʻldi istikboridin iblis malʼun, ey koʻngul.
Emin oʻlma kaydidin yoru birodarman debon,
Ne jafolar qilmadi Yusufgʻa Shamʼun, ey koʻngul.
Dahrning pastu balandidin desang, forigʻ boʻlay,
Qoʻyma ilkingdin zamone jomi gulgun, ey koʻngul.
Tobti shohi nuktadon altofidin soʻz ahli qadr,
Zohir etkil emdi bikri sofmazmun, ey koʻngul.

Bu gulistondin baqo bo'yini istab bo'lmag'il
Lola bargidek saropo dog'u dilxun, ey ko'ngul.
Komil ersang, odat ayla sabr ila xomushlig',
Gar bor ersa, har so'zung bir durri maknun ey ko'ngul.

Bo'lmadimkim bir dame anduhi davrondin xalos,
Andin istarman tanimning bo'lg'onin jondin xalos.
Har nafas boshimg'a bir g'am sangboroni yog'ar,
Tobmadim hech hodisoti charxi gardondin xalos.
Ul labi xandon ruxi gulgun g'amidin ohkim,
Bo'lmadi hargiz ko'zum ashku, ko'ngul qondin xalos.
Xasta ko'nglum nolasi andin falak paymodurur,
Bir asire durki nogah bo'ldi zindondin xalos.
Yetmasa g'amxonam ichra subhi vaslidan ziyo,
Bo'lmog' mumkin emastur shomi hijrondin xalos.
Shum raqibing rashk tig'i birla bir kun chopg'omen,
Mushrik o'lmas zulfiqori shohimardondin xalos.
Johilekim donish ahli suhbatidan qochqusi,
Kofiredurkim topar ahli musulmondin xalos.
Goh zulfi yodi birla, goh yuzining yodida,
Bo'lmadi jonim zamone kufru iymondin xalos.
Komile kim tobsa dunlar ixtilotidin raho,
Bir musulmondekki, tobg'ay kofiristondin xalos.

Manga, ey pari, ko'b itob aylama,
G'am o'tig'a bag'rim kabob aylama.
Tuzub suhbat, ahli jaholat bila,
Kamol ahlidin ijtinob aylama.
Visolingda rohat yeturgil dame,
Firoqingda doim azob aylama.
Chu kelding qonshmg'a ketarman debon
Yana umr yanglig' shitob aylama.
Huzuringda xandon etib dushmanim,
Eshikda ko'zumni purob aylama.
Qovub majlisingdin meni, g'ayrni
Maqomimda noib manob aylama.
Meni soyadek xoksor aylabon,
Oni sarbaland oftob aylama.
Eag'ang'a berib bulbul o'rnida joy,
Humo hamnishinin uqob aylama.
Qilib yod shoyista xizmatlarim,
Xato birla sahvim hisob aylama.

Boqarda ko‘zum chehrai lutfinga,
G‘azab birla qahring niqob aylama.
Firoqingda Komilni nokom etib,
Nifoq ahlini komyob aylama.

Mandin o‘lmishtur bukunlar ohkim jonon malul,
Bu jihatdan aylamish chiqmay tanimdin jon, malul.
Jomi vaslin no‘sh etib ag‘yor doim shod erur,
Man ichib tun, kun erurman sog‘ari hijron malul.
Ro‘zu shab zindoni g‘amda yig‘laram Ya‘qubdek,
Bo‘lg‘ali man xastasidin ul mahi kan‘on malul.
Furqatidin ohu nolam baski dardomiz erur,
Ayladi bedardlarni ham o‘shul afg‘on malul.
Bo‘ldilar begona borcha oshnou yorlar,
Bo‘lg‘ali bu bekasidin ul shahi xubon malul.
Bo‘lmish oldida raqibi kinavar yolg‘oni rost,
Man nechuk bo‘lmay gar o‘lsa rostim yolg‘on, malul.
Hayf, yuz ming hayfkim, fazl ahlini mahrum etib,
Mahram o‘lub ayladilar zumrai nodon malul.
Arzi holimni man emdi kimga aylarman bayon,
Ul gado holig‘a voy, andin esa sulton malul.
Gar malul o‘lsa jahon ahli ne g‘am Komil mango,
Bo‘lmasa basdur agar ul soyai subhon malul.

Ne sud ochilsa gul, o‘lsa bahor g‘urbat aro,
Mengaki bo‘lmasa yoru diyor g‘urbat aro.
Ochilmadi chamaniston havosidin ko‘nglum,
Ko‘zimga gul erur andoqki, xor g‘urbat aro.
Firoq dashtida bir mushkbo‘g‘izol istab,
Ko‘zimni qildi chu dom intizor g‘urbat aro.
Yiroq tushkali ahhob suhbat mayidin,
Nishot jomig‘a bo‘ldum xumor g‘urbat aro.
Chamanda guldek ahibbo vatan aro xandon,
Chu lola bag‘rim erur dog‘dor g‘urbat aro.
Vatanda ko‘zima changalistoncha yo‘q Mahmud,
Ayoq bog‘ida tutdim qaror g‘urbat aro.
Chiqay vatan sadafidin dema guhar yanglig‘,
Agarchi bo‘lsa senga e‘tibor g‘urbat aro.
Nihon et o‘zni vatan qrfi ichra anqodek,
Senga yo‘q o‘lsa murod ishtihor g‘urbat aro.
Vatanda sokin o‘lub sayr et olami bolo,
Safarni aylamag‘il ixtiyor g‘urbat aro.
Tob emdi Xeva ila Pahlavoni Komil esang,
Dema —Buxori sharifu Mazor g‘urbat aro.

Emas kishiga bu dunyoda mulku mol kamol,

Husuli ilmu hunar keldi bezavol kamol.
O'lumdin sharafi oxirat emas yolg'uz,
Ki munda ham sababi izzatu jalol kamol.
Murod ma'rifatullohdur taallumdin,
Emas mubohasau jang ila jidol kamol.
Kamol ma'nisi tahsili ilmi hol durur,
Na hosil aylaguchi mahzi qiylu-qol kamol.
Zamiring ayla musaffo kadardin oyinadek,
Desangki, jilvagar etsun ango jamol kamol.
Bo'lurmu sho'ra zamin obu donadin xurram,
Xabis tab'ga tobmak base mahol kamol.
Kamol bergusidur so'zga shuhratu ta'sir,
Bu qushg'a qilg'ali parvoz parrubol kamol.
Niholi bebari sarkadidurur avomunnos,
Ne sud tobmasa ma'nig'a ittisol kamol.

Tafa'ul aylar eding, ey ko'ngul, qilib niyat,
Ki raf' bo'lg'usi deb toza yilda nahsiyat.
Chu qilmas axtari baxtim safar manozilg'a,
Iqomat etti magar burji nahsda niyat.
Muharram o'ldi harom o'ldi elga kulfatu g'am,
Va lek bir mango yuzlanmadi rafohiyat.
Jahoni buqalamun hodisoti fikridin,
Yetushmadi bu parishon ko'ngulga jam'iyat.
Aningdek o'lmisham ushbu diyorda bekas,
Ki qatl qilsalar olmoqg'a yo'q kishim diyat.
Yiroq tut juhalo ixtilotidin o'zni,
Ki o'tqa yoqmoq o'lubdur yovuqni xosiyat.
Tama'ni tark etu, chiq go'shai qanoat aro,
Sango yo'q o'zga jahon ichra joyi amniyat.
Tamom qilding etib banda xizmatin umring,
Ham aylagil. gahi ma'budinga ubudiyat.
Tut o'zni pastu kichik borcha xalqdan, Komil,
Azim ofat erur nixvatu anoniyat.

Har necha aylabon izhor fasohat shuaro,
Sochar elga duri daryoi balog'at shuaro.
Ochibon lutfi malohat gulin ash'oridin
Rangbo'yi chamani, fazlu fatonat shuaro.
Qilsalar har iyecha izhori sadoqat shabu ro'z,
Ko'rar o'trusida har damda sad ofat shuaro.
Kilmas ummid, qilur shukur, sharorat elining
Tilu ilkidin agar qolsa salomat shuaro.
Haq so'zin shohu gado qoshida kitmon etmas,
Bu jihatdin hadafi tiyri malomat shuaro.
Yaxshidur qonii qashshoq g'ani tomi'din,
Tutdi bu vajhdin oyini qanoat shuaro.
Qilmas o'lganda tama' sifla tazongarlardin,
Bordurur javhar oyinai himmat shuaro.
Qilmag'ay johilu nodong'a itoat hargiz,

Koʻrmasa bir kishidin hukmi siyosat shuaro.
Chun itooti ulul-amir vujubin biladur,
Tark qilmas nafase vojibu sunnat shuaro.
Kecha kunduz qiladurlar sufahogʻa xizmat,
Garchi shoyistai avrangi sadorat shuaro.
Bor alardin necha bekorlar izzatda ziyod,
Tilu ilki bila ham aylasa xizmat shuaro.
Emdi soch soʻz duri Komil sadafi tabʻingdin,
Tobti shoh hazratida qadr ila simmat shuaro.

* * *

Yutubon bu zamonda qon fuzalo,
Kulfat oʻqigʻadur nishon fuzalo.
Qalam ila kitobdin oʻzga,
Topmagʻay yoru hamzabon fuzalo.
Qatnabon suflalar eshikiga,
Topmas oʻlturgʻali makon fuzalo,
Juhalo zumrasi kelib gʻolib,
Boʻldi magʻlubu notavon fuzalo.
Soʻzni fahm etgali kishi topmay,
Ne osigʻ boʻlsa nuktadon fuzalo.
Kimga koʻrsatsa birgina behbud,
Topar oʻtruda ming ziyon fuzalo.
Juhalogʻa qilib mulozimliq,
Topmadilar yemakka non fuzalo.
Mayi gulrang oʻrnigʻa tayyor,
Koʻzlari sagʻarida qon fuzalo.

* * *

Boʻlubon jolisi avrangi jaholat juhalo,
Urdilar olam aro koʻsi hukumat juhalo.
Noʻsh etib rishva mayin yetmay ulus dodigʻa,
Bilmadilar dame oyiai adolat juhalo.
Boʻlubon homii arbobi fasodi sarka, (?)
Jamʻ qildilar ukush davlatu sarvat juhalo...
Ulamogʻa berib ijroi shariatda shikast,
Berdilar johili nodongʻa himoyat juhalo.
Qilib oʻz royicha ish amri hukumatda mudom,
Qildilar tark base farz ila sunnat juhalo.
Arzu dod amrida ahkomi shariatni qoʻyub,
Yurutub oʻrnigʻa qavliyat odat juhalo.
Boʻlub oʻz boshlarigʻa feʻli musallat, yo rab,
Boʻlmagʻay boisi mankubi viloyat juhalo.
Komilo, tutsa ne tong vartai zillatda maqom,
Topdilar masnadi izzatda sadorat juhalo.

Ey koʻngul, zinhor qilma ahli davrondin tamaʼ,
Bor esa bu xasta jisminggʻa agar jondin tamaʼ.

Chunki yo‘q ermysh jahon ahlida xolis do‘stlig‘,
Kimki ondin yaxshiroq yo‘q, aylama ondin tama’.
Dahri dundin ko‘rmagung juz hasrati nokomlig‘,
Gavhari maqsudni qilma bu ummondin tama’.
Solim o‘lmoqning sipehr osibidin imkoni yo‘q,
Qilma hargiz ofiyat kunjin bu vayrondin tama’.
Ko‘zlari jallodidin qilmsq muruvvat orzu,
Ahli iymon aylagandek kofiristondin tama’.
Istayin ne nav’ jonim rohatin mijgonidin,
Qilg‘omu majruh marham tig‘i uryondin tama’.
Sharbati la‘li havosin istamaklik bodadyan.
Aylama jonbaxshlig‘ juz obi hayvondin tama’.
Xoni vaslig‘a raqibidin ionat istamak,
Aylagan yanglig‘ gado ilkidag‘i nondin tama’.
Olam ichra gar bo‘lay desang azizu arjumand,
Aylama Komil kabi juz zilli subhondin tama’.

Iyd o‘ldi olam ahlig‘a yuzlandi ibtihoj,
Shah toraki muborakidin qadr tobtı toj.
May tarki birla rind eli giryonu zor edi,
Atfoldekki yig‘lar ango kissalar sujoj.
Jomi sabuhidin topibon quvvati tamom,
Ro‘za riyozati bila bir za‘flig‘ mizoj.
O‘tkardi ro‘zaii yebon ahli g‘ino shakar,
Bechoralar saharliku iftori bir kuloj.
Atfoli ag‘niyo olib iydona g‘a tilo,
Qashshoqlar bolasi diram tobmly oldi koj.
Ahli karam saxosidin ummid aylabon,
Iydona dur bahonai arbobi ehtiyoj.
Shohi liboslar kiyibon barcha xoslar,
Ma‘lum bo‘ldi kim sinuqu kim berur rivoj.
Yo rab, shahim hukumatini mustadom tut,
Avrangi adl uzra maqom ayla taxtu toj.
Komilcha bo‘lmag‘ay shuaro madhinga fasih,
Bulbul kabi navo qila olurmu soru soj.

Menga zulmin kam etmas gunbazi davvor har soat,
To‘kar g‘am xirmanin boshimg‘a yuz xirvor har soat.
Ne ul oydin kelur yillar aro bir vasl payg‘omi,
Ne oning majlisidin ayrilur ag‘yor har soat.
Ne ahvolimni arz aylarg‘a homiyu muinim bor,
Ne shah yillarda holim aylar istifosor har soat.

Kima bir xizmat etsam, aylagay o'rnig'a yuz tuhmat,
Asalg'a, zahru gul o'rnig'a, sanchar xor har soat.
Bo'lub begonavash yillar yomonlig' oshkor etti,
Kima kim oshnolig' ayladim izhor har soat.
Yetar afg'onga nodoi do'stlarning ixtilotidin,
Ko'ngul oyinasig'a yuz tuman zangor har soat.
Jahon pastu balandi, soqiyo, qon qildi ko'nglumni,
Mani masti mudom et, qo'ymayin hushyor har soat.
Bo'lur har soatim bir kun, kunim yuz yil, yilim ming oy,
Menga lutf etmasa, shohi falak miqdor har soat.
Hamisha o'z tama' shohi jahondin o'zgin. Komil,
Desang bo'lmay jahon ichra zalilu xor har soat,

Yuzu xoling g'amidin gar emastur notavon lola,
Nedin bo'lmish hamisha sina dog'u, bag'ri qon lola.
Xijolatmandi xolu orazing ermas esa, nechun,
Qo'yub gulshanni dashtu tog' aro tutmish makon lola.
Bo'yoldi qong'a g'amzang tiyrborondin ul go'yo,
Qochib ko'hsor g'orin anglamish dorilamon lola.
Tunu kun davr etib, hech ko'rmadilar dashtu gulshanda,
Yuzingdek sab'ai sayyora birla osmon, lola.
Ochibmu bog' aro ustida gullar sarv yo shamshod,
Boshig'a qistiribmu yoki ul sarvi ravon, lola.
Qadam qo'y sarvnnng boshi uza, ey sho'x, gulshanda
Ki to bilsun seni bir xisravi oliy makon lola.
Chamanda xizmat uchun bir ayoqda tik turub shamshod,
Tutar yo'lingda nargisdin qo'lida sham'don lola.
Ko'ngul dog'ini ko'rsatmak ko'zungga mumkin ermastur,
Agar ko'rmak tilarsen bordurur andin nishon lola.
Ani hech gulga tashbih aylamas Komil kishi, mundin,
Birin bosh uzra qo'ysang, ismi zot aylar ayon lola.

Kulmading bir, to mani yuz qatla giryon qilmading
Tutmading bir jom, to ko'nglum to'la qon qilmading.
Xotirim davron g'amidin qilmading bir lahza jam',
To mani bir yilg'acha zoru parishon qilmading.
Xasta ko'nglum tah-batah qon qilmag'uncha g'unchadek,
Ochilib majlisda ruxsoring gulafshon qilmading.
Man tarafg'a qilmading hargiz xatodin bir nigoh,
To raqibimg'a boqib yuz lutfu ihson qilmading.
Aylading mehru vafo bobida qaysi va'dalar,
Kim yana ul ahdu paymondin pushaymon qilmading.
Otmading qahru itobing novakin ag'yorg'a,
To malomat o'qig'a ko'ksimni qalqon qilmading.
Qilmag'uncha xoni vaslingdin bu zoring benasib,
O'zgani bu xoni ihson uzra mehmon qilmading.
Egnima kiydurmading lutfu inoyat xil'atin,
To libosi ofiyatdin jismim uryon qilmading.
Qaysi bir ummidkim lutfingdin etdim oqibat,
Ul umidim hosilini ya'si xirmon qilmading.

Ey sitamgar, qaysi bedilg'a berib vaslingda joy,
So'ngra oni muhtaloyi dog'i hijron qilmading.
Qilmag'uncha xonu monimni qaro hijron aro,
Kulbam ichra orazing sham'i shabiston qilmading.
Donish ahlig'a qayu qilmishlaring dey, ey falak,
Qay birin ul zumranitsg mag'lubi nodon qilmading.
Sirri ishqing necha pinhon tutti eldin, ey pari,
Qo'ymading Komilni to rasvoi davron qilmading.

Jonbaxsh la'ging ustida ul xol hindularmudur,
Yo chashmayi hayzon uza zog'i siyah mo'larmudur?
Bog'i jamoling sahnida o'ynar ko'zing mardumlari,
Yoxud Xo'tan gulzorida tayr etkan ohularmudur?
Sunbul erurmu sarvg'a chirmoshib o'skan bog' aro,
Yoxud cho'lashg'an qaddinga shabrang gesularmudur.
Xatti muanbarmu erur chohn zanaxdon davrida,
Yo salsabil atrofida rayhoni xushbo'larmudur?
Shahlo ko'zing atrofida kirpiklaringmu, yo'q esa,
Qurg'on kiyiklar saydig'a sayyod mo'ndularmudur?
G'amzang mijang novaklarin otmoqdadur ikki kamon,
Yo ko'zlaringning ustida payvasta abro'larmudur?
Zohir areqlarmu erur, gulbargi xandoning uva,
Yo la'li xotam davrida serob lu'lularmudur?
G'amzang xadagin har taraf otsang tegar man zoringa,
Jonu ko'ngulmu, yoxud ul o'qlarga qopularmudur?
Hayroni didoring bo'lub turmush qoshingda xo'blar.
Yo'q ersa qo'yg'on o'truda mashshota ko'zgularmudur?
Tortar riyoiiy shayxlar masjidda jahr aylab fig'on,
Yo ko'kka boqib ko'chada har kecha ig uvlarmudur?
Komil qoshig'a keldimu barcha raqibi hilasoz,
Yo sheri g'urron ollida bir necha tulkularmudur?

Gar olsa ilkiga ul moh tanbur,
Chekar o'tlug' ko'nguldek oh tanbur.
Qilur mutribvashimning furqatida,
Damo-dam nolai jonkoh tanbur.
G'amingdin nola aylardz tunu-kun,
Mengadur hamdamu hamroh tanbur.
Bo'lurman g'am saqilidin sabukbor,
Ayon qilsa gar ishqulloh tanbur.
Jahonda sozning anvoi ko'bdur,
Vale istar gadou shoh tanbur.
Bo'lur ushshoq, ey mutrib, asiring,
Olib soz aylasang dugoh tanbur.
Qilur sayri maqomot ul jihatdnn,
Erur Komilg'a xotirxoh tanbur.

* * *

Vahki, ko'zlarim giryon qildi la'li xandonlar,
Jam' qo'ymadi ko'nglum kokuli parishonlar.
Bog'u g'uncha sayridin bo'ldim emdi mustag'ni,

Ochti gul xadangingdin ko'nglum ichra paykonlar.
Orazi araqnoking ko'rdi chun chaman ichra,
G'ullar o'ldi shabnamdek, barcha chashmi hayronlar.
Toki g'amzau nozing ko'z uyin maqom etti,
Tashqarida mijgonlar bordurur nigahbonlar.
Ishq so'zu dardidin nola qilma ko'p, ey dil,
Bo'lmasunlar ozurda bu aziz mehmonlar.
Qaysi xoli orazining dog'idur chamanlarkim,
Lola dog'u, gullarga chok erur giribonlar.
Chini ostiningdur, mavji javhari shamshir,
Yig'nama bu zoringni qatl etarga domonlar.
Bu shahodat iqbolin kim topar ekan, yo rab,
Nozi oldi mijgondin qo'lg'a tig'i uryonlar.
Kimki husn shohig'a begunah — gunahkor ul,
Anga zulf erur zanjir. choh erur zanaxdonlar.
Husni ko'zgusi bordur mazhari jamolullo,
Man'i ishqim etmanglar, ey guruhi nodonlar.
Komilo, shahanshohing nazmi gavhar afshonin,
Ko'rsa banda bo'lg'aylar Fazliyu Umarxonlar.

* * *

To sayri gulshan noz ila ul sarvi ozod aylamish,
Sarv o'zni aylab bandayu, gul barg barbod aylamish,
Gulzor aro ruxsorini chun ko'rdi shaydo andalib,
Gul infiolig'a boqib, afg'onu faryod aylamish.
Jonim xalos o'lg'ay nechuk, oning ko'zu mijgonidin,
Bu birni xanjar aylabon, ul birni jallod aylamish.
Man ne sifat tark aylay ul shirin shamoyil ishqini,
G'am besitunin qozg'ali ko'nglumni Farhod aylamish.
Qoshu ko'zining shaklidan qatlimg'a nass zohir bo'lur,
Chekkanda go'yo suratin bu naqsh Behzod aylamish.
Mandin qochinglar baxtdek, ey ayshu ishrat: shohidi,
Bir sho'x ko'nglum mehnayau kulfatg'a mu'tod aylamish.
Javru jafolarkim manga yetmish oning hijronida,
Bilmas hisobini aning, aql ahli te'dod aylamish.
Ta'sir qilmas nolishim bir zarracha, go'yo qazo,
Xilqatda bag'rin tosh etib, ko'nglini fo'lod aylamish.
Ermas pari gar, ne uchun ham yig'latib ham kuldurur,
Bu nav' afsunni qachon bir odamizod aylamish.
G'amzangga taqlid aylabon el qatlini aylar ajal,
Ori qilur shogirdi ham har ishki ustod aylamish.
Gulrux sanamlar, ne ajab, qilsa itoat amringa,
Kim haq azalda shohg'a lashkarni munqod aylamish.
Kim sifla ersa shod etar bu charxi dushmankom oni,
Vohkim hamisha imtiyoz ahlig'a bedod aylamish.
Noqislar izzu johini har kun baland aylab falak,
Komillar o'rnin past etib, mahzunu noshod aylamish.

Koʻrmamish sandek jahonda hech bir gulzor, gul
Kim sanga bordur badan gul, jabha gul, ruxsor, gul.
Gul uzoring lamʼasidin ochti gardun bogʻida,
Farqadon gul, kakhushon gul, sabʼai sayyor gul,
Bazm aro gulbargi xandoninga qurbat topgʻali,
May gulu, meno gulu, ham sogʻari sarshor gul.
Boʻldi bulboʻllargʻa gulshan ichra husning shavqidin,
Nola gul, afgʻon gulu, alhon gulu, minqor gul.
Gulshani bazm achra har feʼl oʻlsa gar sandin ayon,
Noz gul, raftor gul, guftor gul, atvor gul.
Sayri bogʻ aylarda toptilar quduming fayzadin,
Sarv gul, shamshod gul, ashjor gul, har xor gul.
Yigʻlamakdin gul yuzing hajrida qonligʻ ashkidin,
Fosh etar xuni jigar gul, didai xunbor gul.
Boʻldi mutriblargʻa bazming ichra hangomi surud,
Noxunu mizrob gul, musiqiyu advor gul.
Boʻldi zohidlargʻa husni bemisoling vafida,
Zikr ila avrod gul, tasbih gul, dastor gul.
Chun sening yoding qilurlar sokini dayru haram,
Yo samad gul, yo sanam gul, subha gul, zunnor gul.
Qildi Komil tabʼini shah lutfi gulzor oʻylakim,
Masnaviy gul, qitʼa gul, abyot gul, ashʼor gul.

Sensizin, ey dilrabo, jannatda gʻilmon boʻlmasun,
Demayin gʻilmonki, bal jismim aro jon boʻlmasun.
Boʻlmasa vasling muyassar, ey paripaykar, mango,
Toʻbiyu kavsar bila firdavsi rizvon boʻlmasun.
Laʼl jonbaxshing firoqida mango, ey guluzor,
Gulshani jannat ichida obi hayvon boʻlmasun.
Bu jahon gulruxlari boʻlsun sango farmonpazir,
Husn iqlimida sandin oʻzga sulton boʻlmasun.
Doʻstlar, doim demang nechun parishonhol san,
Hech kishining dilbari kokulparishon boʻlmasun.
Ishq elin qatl etkali chiqmish dedilar bir pari,
Bir xabar oling bizing oshubi davron boʻlmasun.
Komiloso bodai vasl ila labtar boʻlmayin,
Hech kimsa muhtaloi jomi hijron boʻlmasun.

Koʻzim giryonliqigʻa ul labi xandon erur bois,
Koʻngul mahzunliqigʻa kulfati hijron erur bois.

Gʻami ishqim ulusgʻa fosh oʻlurgʻa, ey guli raʼno,
Sarigʻ ruxsor uza oqgʻon koʻzimdan qon erur bois.
Dili tangim ochilmas juz nasimi iltifotingdan,
Dami subh, oʻlmoqigʻa gʻunchaning xandon, erur bois.
Ne tong ul oygʻa taʼsir etmas ersa ashksiz ohim,
Hadafgʻa yetmakigʻa tiyrning paykon erur bois.
Yetursa koʻngliga zaxm el, tili mavzun soʻzingdindur,
Sadaf chokiga yoʻq xanjar, duri gʻalton erur bois.
Desang ozod oʻlay gʻamdin suxansanj oʻlma, bulbuling
Qafasband oʻlmaqigʻa shakarinihon erur bois.
Musoffodur koʻngul koshonasi doim xayolingdin,
Bezarga kulbasini mevbon, mehmon erur bois.
Malul oʻlma mazallat tiyra chohi ichra qoldim deb,
Aziz boʻlmaqgʻa Yusuf, Misr aro, zindon erur bois
Ne tong Komil Navoiy yangligʻ oʻlsa soʻz aro sarmast,
Bu sarxushliqgʻa jomi suhbatı sultsn erur bois.

Meni Majnun boʻlubman bir pari ishqida devona,
Ki yodidin boʻlubdur koʻnglum andoqkim parixona.
Erur ul mansizin doim nishotu aysh ila har dam,
Vale man onsizin tun-kun gʻamu kulfatgʻa hamxona.
Tutar har subh elga kosa-kosa bodai vaslin,
Ichib man zahri hijron, har kecha paymona-paymona.
Ne tong, tushsam man ul koni malohat majlisidin dur.
Muyassar boʻlgʻamu hargiz gadogʻa bazmi shohona.
Ne hojat bodakim, ul mugʻbacha masti mudom aylar,
Mani yoʻq, borchani majlis aro gar kirsa mastona.
Chu qildi tiyra kulbam, ey saodat axtari, hajring,
Munavvar boʻlmoqi mumkin emas gar kelmasang yona.
Koʻngulda sirri ishqing yoshururman xalqdin doim,
Nedinkim bordurur ul ganjgʻa madfan bu vayrona.
Manga qil zulmu bedodingni bas, ey mahvashi Chini,
Yoʻq ersa aylaram bir kun qulingdin arz xoqona,
Havodis sangboridin desang mahfuz oʻlay xumdek,
Boʻlub sarshor maydin, qil maqoming kunji mayxona.
Mulozimpesha boʻlma joh uchun har pastfitratgʻa,
Tavakkal shohrohida taku-poʻ ayla mardona.
Agar bor et, vagar yoʻq, Komil ayrilmas dame sendin,
Kim uldur zarra, sen xurshid, san shamʼu u parvona.

Savodi xattinga gar istamas boʻlmaq makon kogʻaz,
Bayoz ichra nedin daftar boʻlub ochmish doʻkon kogʻaz.
Koʻzu, qaddu, xatu, laʼling sifotin qilgʻali tahrir,
Midodim — koʻz, mijam — homam, siyohim — ashku jon — kogʻaz.
Sarigʻ chehramdurur ishqini qilgʻon fosh olamgʻa,
Nechukkim lafz ruxsorigʻadur oyinason kogʻaz.
Koʻngulning dogʻi boʻlsa ne ajab zohir jabinimdin,
Nazarlargʻa savodi nuqtani aylar ayon kogʻaz.
Zamirim lavhida naqshi xayoling oʻyladur mahfuz,
Ki maʼni shohidigʻa bordurur dorulamon kogʻaz.

Falak mehri jamoling vasfini tahrir qilmoqg'a,
Shahobin xomai anjumdin aylar zarfishon kog'az.
Jamoling vasfi tahririn tamom etmak emas mumknn,
Qalam ashjor esa, daryo siyohi, osmon kog'az...
Yozibmu ul pari Komilg'a gulgun safhag'a noma,
O'qurda yo ko'zi xunobidin bo'lmishmu qon kog'az?

Xabar topmish bu mahfilda jamolingdan magar ko'zgu
Kamoli hayrat ila o'zdin o'lmish bexabar ko'zgu.
Uzori otashining shu'lasi bskg'ach, yoqar jonim,
Ko'rubmu hech nozir zohir etkanni sharar ko'zgu.
Yuzung xurshidi zulf ostida jabhangdin namoyondur,
Quyosh ruxsorig'a bo'lg'on kabi shomu sahar ko'zgu.
Ruhing mir'otini tut zohidi xudbin ko'zidin dur,
Ne bahra topg'usi ko'rgan bila ul bebasar ko'zgu.
Tamoshoyi jamolingdin, ne tong, shirinkalom o'lsam,
Ki to'tilarni doim so'zlatir shirin-shakar, ko'zgu.
Jamoling ishtiyoqidin mudom ermas esa giryon,
Nedin boshdin ayoq bo'lmishdurur bir chashmi tar ko'zgu.
Yuzung mir'oti hijronida bo'ldim necha kundur lol,
Suxansanj o'lmakig'a keldi to'tining hunar ko'zgu(?)
Ruxing nazzorasi fikridin o'zga yo'q menga maqsud,
Ko'zumg'a jilvagar bo'lg'onda gar xurshid, gar ko'zgu.
Bu vajh ila alar nazzorasi bordur manga matlub,
Jamoli bezavolingg'a erur shamsu qamar ko'zgu.
Jamoli jilvasin Komil zamiridin tamosho qil,
Ki mazharliqq'a loyiq bo'lmag'ay ul yuzga har ko'zgu.

Yorim uzori avji saodat mahi erur,
Bu vajh birla husn eli shohanshahi erur.
Bordur chu xo'blar aro mumtoz, go'yyo,
Husn avjining najumi alar, bu mahi erur.
Behroq ko'rar chu mandin ul oy g'ayrni, ne tong,
Gar chehra sarg'arib, menga rashki behi erur.
Ne nav' ohu nola bila hamrah o'lmayin,
Doim raqib oning bilakim, hamrahi erur.
Yo'q bulhavas oning kabi qadding huzurida,
Har odamiki moyili sarvi sahi erur.
Maqsad yuzin hamisha anga ko'rguʻur jahon,
Har kimki chashmi nuri xiraddin tihi erur.
Komil, ne tong, gar ogah esa so'z kamolidin,
Doim anisi Rojiiy ila Ogahiy erur...

* * *

Ohkim bir sarvi gulruxsora oshiq bo'lmisham,
Bemuruvvat qotili xunxora oshiq bo'lmisham.
Oldi jonim, nozu istig'nou yolg'on va'dasi,
Bir sitamgar zolimu makkora oshiq bo'lmisham.
Ohu nola qumri-yu to'tidin o'tsa, ne ajab,
Bir sixiqomat, shakarguftora oshiq bo'lmisham,
Sarvu gul xascha ko'runmas ko'zima, ey bog'bon,

Bir yuzi gul, qaddi xushraftora oshiq bo‘lmisham.
Do‘stlar, gah bexudu, gah xastahol o‘lsam ne ayb,
Ko‘zlari ham mastu, ham bemora oshiq bo‘lmisham.
Hajrida ko‘zdin to‘karman tun-kun ashki lolagun,
Toki man ul xilʼati gulnora oshiq bo‘lmisham.
Yoruta olmas shabistonim quyoshing, ey sipehr,
Ul yuzi xurshidi puranvora oshiq bo‘lmisham.
Aylama, Komil, manga firdavsu rizvon vasfini.
Vasli ishratgohida diydora oshiq bo‘lmisham.

* * *

Manzilim chun bo‘ldi ushbu yil diyori Toshkand,
Jonu ko‘nglum doim istar xor-xori Toshkand.
Burji mizonda edi masnadrishin shoxi Xo‘tan,
Ham barobar erdilar laylu-nahori Toshkand.
Nuru zulmat o‘lchanib tun-kun ufuq maydonida,
Birdek erdi subhi sofu shomi tori Toshkand.
Sarbasar ashjor zarrin bargidan bodi xazon,
Farsh qilg‘on barcha qasri zarnigori Toshkand.
Xush havolig‘ muncha bo‘lsa anda ayyomi xazon,
Yorab, erkandur nechuk fasli bahori Toshkand.
Bo‘ldi mehmon joyimiz haq lutfidin bir bog‘kim,
Mevadoru, lolazoru naxldori Toshkand.
Garchi anda bog‘ila bo‘stong‘a yo‘q xaddu shumor,
Ziynat afzoliqda chun xoli uzori Toshkand.
Vus‘atu nazhatda rashki jannatul-ma‘vodurur,
Kavsari tasnimi nahru jo‘ybori Toshkand.
To‘bi oso bosh chekib charxi muallo sorig‘a
Archau yel birla shamshodu chinori Toshkand.
Har kuni sayr aylar anda huru g‘ilmon o‘rniga,
Sarvqaddu, guljabinu, guluzori Toshkand.
Lekin ushbu yilg‘a to‘g‘ri aylabon bead hisob,
Dedi tarixini hotif chashmasori Toshkand.
Umr boqi bo‘lsa olti yil yana Komil senga,
Yozg‘il oning solli tarixin shumori Toshkand.

Qaysi falak burjining mehri puranvorisan,
Qaysi sadaf durjining gavhari shahvorisan,
Kaysi Xo'tan ohusi nofai totorisan,
Qaysi chamanzorning lolai gulnorisan,
So'yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.
Qomatinga bandadur bog' aro sarvi ravon,
La'li labing rashkidin g'uncha erur bag'ri qon,
Chunki chaman sahnida bo'lsa yuzing gulfishon,
Nolasin aylar fuzun bulbuli bexonumon,
So'yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.
Yig'latur oshiqlaring la'l labing xandasi,
Qumrii nolon erur sarv qading bandasi,
Husnu jamol avjining axtari tobandasi
Ko'rsa agar orazing, bo'lg'usi sharmandasi,
So'yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.
Sen kabi bir dilbari guruxi siminbadan,
Vaqti takallum aro to'tii shirinsuhan,
Majlis aro aylasang sha'badau la'bu fan,
Vola o'lurlar senga ahli zamonu zamon,
So'yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.
Oy yuzi — husnu jamol bog'ining ahmar guli,
Jon ila ko'nglum erur ushbu guling bulbuli,
Qumrii nolon erur sarv qadingning quli,
Yo'q esa nechun ani bo'ynida bordur g'uli,
So'yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.
Ayshu nashot istabon g'amg'a duchor o'lmog'on,
Mehringa dilbastai zoru nazor o'lmog'on,
La'l labing shahdig'a bormu xumor o'lmog'on?
Dahr aro yo'qtur senga oshiqi zor o'lmog'on,
So'yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.
Bir kecha aylab menga mehru muhabbat ayon,
Hamrahu yo'ldoshsiz barcha ulusdin nihon,
Kulbai ahzonima bo'lsang agar mehmon,
Komili mahzuninga rostini etkil bayon,
So'yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.

Zinhor el ixtiloti birla xurram bo‘lmangiz,
Mehnati har dam fuzunu rohati kam bo‘lmangiz,
Men kabi bori nadomatdin qadi xam bo‘lmangiz,
Do‘stlar, olam elig‘a yoru hamdam bo‘lmangiz,
Yor ila hamdam demaykim, oshio ham bo‘lmangiz.
Olam ahlidin vafo osorini kilmang gumon,
Naqd umrim sarf etib kildim alarni imtihon,
Uzlat istab ahli olamdin qoching boricha jon,
Oshnolig‘ aylabon, o‘z joningizg‘a har zamon,
Boisi yuz miig balou mehnatu g‘am bo‘lmangiz.
Ruhparvar lablaridin istabon no‘shi hayot,
Urdim o‘z jonimg‘a o‘z ilkim bila nishi mamot,
Va‘dasida yo‘qturur hargiz vafo birla sabot,
Yeb parivashlar firibin, so‘ngra topmay iltifot,
Men kabi devonau rasvoi olam bo‘lmangiz.
Yerdin gar marhamat yetsin va gar ranju alam,
Oshiqi sodiq tutar oni hamisha mug‘tanam,
Ko‘rماغumdur vaslidin anduhi hijronini kam,
Vasli aysh omoda qilsa xalqni, ey dardu g‘am,
Siz buzuq ko‘nglumdin o‘zga yerga mahram bo‘lmangiz.
Garchi bu dam xotirimdur dardu mehnat ma‘dani,
Jismi zorim yuz tuman anduhu kulfat maskani,
Sizni ham mandek qilur ul dilrabolar purfani,
Ey visol ahli, ul oyning dardi hajridin mani,
Ko‘b ko‘rub g‘amnok asru shodu xurram bo‘lmangiz.
Ohkim, har kimga molu jonimi qildim fido,
Qildilar yaxshilig‘img‘a ming yamonlig‘ borho,
Ahli olamdin vafo aylab tama’, chekmang jafo,
Ey xarobot ahli, yo‘q insonda imkoni vafo,
Mastlig‘din dev o‘lung, zinhor odam bo‘lmangiz.
Garchi Komil bo‘ldi furqatdin alil, ey ahli vasl,
Hajr o‘tig‘a tushti andoqkim xalil, ey ahli vasl,
Lek topti yor vaslig‘a dalil, ey ahli vasl,
Gar Navoiy hajr aro bo‘ldi zalil, ey ahli vasl,

Emdi yaavbat sizgadur, muncha muazzam bo‘lmangiz.

Dardoki, yo‘q jahon elida sharmsorlig‘,
Ko‘rganlar, izzatimni, manga berdi xorlig‘,
Erkan abas zamon elidin do‘stdorlig‘,
Yaxshi kunimda har kishikim berdn yorlig‘,
Do‘ngach zamona, ayladi dushmanshiorlig‘.
Ulkim edi vujudi vafo ma‘dani, bukun
Dushmang‘a lutfu, zulm mangodur fani bukun,
Derkim raqib sonida ko‘rmon sani bukun,
Atfol etakg‘a tosh yig‘ingkim mani bukun,
Devonalikg‘a yetkuradur beqarorlig‘.
Har kimsa o‘z nigori visoli zamonida,
Izzat mayini no‘sh etar ishrat makonida,
Faryodkim, bo‘lolmadim ag‘yor sonida,
Itlar azizroq ko‘runur xalq yonida,
Mandinki, qo‘ying ichra chekarman bu xorlig‘.
Borsen agarchi davr elig‘a foiq, etma rad,
Ishqing aro bilib mani ham sodiq, etma rad,
Ko‘rdum yuzungni, bo‘ldum agar oshiq, etma rad,
Man garchi suhbatingg‘a emon loyiq, etma rad,
Bu gulshan ichra gul ul erur bo‘lsa xorlig‘.
Ushshoqni qilurg‘a chu qilding fig‘on asir,
Nag‘mangg‘a bo‘ldi barcha eshitmak hamon asir,
Ne nav’ bo‘lmayin mani bexonumon asir,
Ey mutrib, o‘ldi halqai nag‘mangg‘a jon asir,
Sozingg‘a yor zulfilin oldingmu torlig‘.
Sansan sariri husn uza shohanshah, ey masih,
Gar xo‘blar kavokib esa, san mah, ey masih,
Komilg‘a ko‘yung o‘lgusi manzilgah, ey masih,
Munisni g‘am yeturdi halokatga, ey masih,
Maqtulinga dami qilako‘r g‘amgusorlig‘.

So‘z duri noyob erur, oni qilur izhor til,
Husnidin foida gar bo‘lmasa durbor til,
O‘zga so‘zlar degach, o‘ldi mujibi ozor til,
Bazm aro mundoq takallumg‘a chu ochti yor til,
Huqqai yoqutdin sochdi durya shahvor til.
Garchi qotil ko‘zlari ushshoqig‘adur jonsiton,
Lek jonparvar kalomi bordurur ruhi ravon,
Bu jihatdin ishq yo‘lida mangadur biymi jon,
Yuz o‘lukni tirguzub to‘tided aylar xushbayon
Ul masih ochsa qachon so‘z derga shakkarbor til.
So‘z chog‘i alfozining behaddu poyon lazzatin,
Topg‘olv ko‘nglum sog‘inmas obi hayvon lazzatin,
Vasf yuz ming til bila qilmoq ne imkon lazzatin,
Chui eshitgach, har so‘zidin topg‘oman jon lazzagin,
Vah bo‘lur erkoi nuchuk odamg‘a bu miqdor til.
Hajr aro gar ming alam yetsun mani bermorg‘a,

Tig'i g'am yuz zahm yetkursun dili afgorg'a,
Tarki nshq et dema hargiz, nosiho, man zorg'a,
Yo'q g'amim ishq ichra o'lmakdin, nedinkim yorg'a
Qilg'usi har dam masiho mo'jizin izhor til.
Eyki bir Layli g'ami ko'nglingda tushmishdur qaror,
Fosh etib, bo'lma ani, devonau Majnunshior,
Bo'lmasun desang bu maxfi rozim elga oshkor,
Ishq sirrin tilga kelturma ko'nguldin zinhor,
Kim emastur ishq eliga mahrami asror til.
Har necha bo'lsun so'zung mavzunu, nugqung jonfizo,
Ahli dunyo ollida yo'qtur anga qadru baho,
Ulki ikki nukta debtur bordurur biri xato,
E'tiboru izzat istar; kimsakim olam aro,
Yo kerak bisyor zar, yo'q ersa purguftor til.
Komilo, nutqung agarchi guldurur bexor emas,
So'z necha shirin erur xomo'shlig'cha bor emas,
Oqil uldur dahr aro harkimki purguftor emas,
Bo'lma mahzun, Ogahiy, gar til senga hamvor emas,
Sanda xud gar bo'lmasa xomangda bor hamvor til.

MASNAVIY

(Qisqartirib olindi)
She'r ko'b vaqt kambaho erdi,
Shuaro baxti ham qaro erdi,
Lillohilhamdu vassanoki bu dam,
Jo'sh urub sizga bahri judu karam,
Saj'i bir tangadin baho bo'ldi,
Shuaro kissasi to'lo bo'ldi,
So'zni gavhar demishlar o'tkanlar,
Fazl do'konini yurutkanlar,
Bu zamonda guhar jugani bo'lmish,
Durni sotmok, juganga fan bo'lmish,
Yo javohirshunos emasmu alar,
Tanimaslar jungan bila gavhar.
Yo g'alat deb dururlar ahli sadaf,
Yo jungan bordurur guharg'a xalaf.
Yoki lafzi qadimda derlar,
Jugari otini alar gavhar.
Ulki ogohlarning ogahidur,
Fahmu donish sipehrining mahidur,
So'zi ortiqdurur guhardin ham,
Fazlu donishda olam ichra alam,
So'zni har necha qizsa bozori,
Bordur olamda bir xaridori,
Ming balog'at bila so'z aylab ado.
Qilur oni jungan bila savdo.
Ul dog'i ushr, yo zakotdurur,
Anga in'omu bazl ot durur.
Mani bechorau g'aribu haqir,
Ki so'zum ichra zarrayo'q ta'sir.
So'z desam kim anga quloq solur,

Kim ani yoki bir ko‘nakg‘a olur.
Man ne yanglig‘ so‘z aytayin insho,
So‘z durig‘a bu nav‘ bo‘lsa baho,
So‘zuma hech kishi jugan bermas,
Bersalar ham samon — yomon ermas.

RUBOIY

Har necha balo yetsa chekib boshni bukma,
Ta‘jil yaqosig‘a boshingni suqma,
Amrozu, alam shiddatidin hovliqma,
Topg‘ung yana, Komilo, shifo oshuqma,

FARD

Har kimsaki aylasa oshukmasiy xayol,
Yafrog‘ni yifak kilur, chechak bargini bol.